



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Shaxlo Xudoyqulova

SamDU, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

TALABALARDA ILMIY-METODIK TAYYORGARLIKNING TARKIBIY QISMLARI VA ULARNING KVALIMETRIK DIAGNOSTIKA QILISH YO'LLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini takomillashtiruvchi ta'lim va pedagogik texnologiyalar, kvalitatif metodlar hamda kvalimetrik texnologiyalar haqida so'z yuritiladi. Talabalarning o'zlashtirilgan bilimi va malakalarining mosligi va pedagogik kvalimetriya asoslari masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar chuqur tahlilga olingan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiya, pedagogik muammo, kvalitatif texnologiya, ta'limda kvalitologiya, kvalimetriya, pedagogik kvalimetriya, ta'lim sifatlarini baholash, statistik, ekspert metodi.

Аннотация. В данной статье речь пойдет об образовательных и педагогических технологиях, повышающих качество образования, количественных методах и квалиметрических технологиях. Подробно проанализирована работа по сопоставлению полученных знаний и умений студентов с основами педагогической квалиметрии.

Ключевые слова: образовательные технологии, педагогическая технология, педагогическая проблема, количественная оценка, квалиметрия, педагогическая квалиметрия, педагогический контроль, оценка качества образования, статистика, экспертный метод.



Hozirgi zamon taraqqiyoti sharoitida o'quvchilarni tayyorlash, pedagogik tizimni baholash, o'qitish sifatini baholash, ular egallagan bilimlar tarkibini diagnostika qilish mummosi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz pedagogikasida 70-yillarning boshlaridan e'tiboran o'qitish jarayoni bilan bog'liq adabiyotlarda "ta'lim texnologiyalari" jumlasini tez-tez ishlatilib kelinmoqda. O'quv jarayoni sifatini oshirishning yangi yo'llarini ishlab chiqish bir vaqtning o'zida fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish natijasi va uni takomillashtirish sharoiti sifatida namoyon bo'lmoqda.

M.I.Zareskiy, B.P.Yesipov, M.A.Danilov, IL.Lerner, M.N.Skatkin va boshqa olimlar bilim tarkibi va uni baholash sifati muammosi bilan shug'ullanadigan yangi pedagogik kognitologiya ilmiy yo'nalishiga asos solishgan. Ular tomonidan pedagogik atamalar sifatida bilim sifati mezonlari, bilimlarning to'liqligi, to'g'riligi, aniqligi, hajmi, tizimliliigi, ongliligi, chuqurligi, amaliyligi, umumiyliigi, konkretligi, mustahkamligi va boshqa sifatlari keng iste'molga kiritilgan.

Amaliy maqsadlarda ta'lim sifati tushunchasi ta'lim oluvchini o'rab turgan o'quv jarayoni muhitining «sifat o'zgarishlari», ma'lum bir kurs, bo'lim yakuni asosida to'plagan bilim, egallagan ko'nikma va malakalari, qadriyatlarini sifatining yaxshilanganligi tushuniladi.

Ta'lim sifati tushunchasining toraygan natijasi sifatida tayyorgarlik sifati tushunchasi paydo bo'ladi. Tayyorgarlik sifati tushunchasini o'zlashtirilayotgan o'quv predmeti yuzasidan amalga oshirilayotgan o'quv jarayonida ta'lim dasturlarini amalga oshirish darajasida ta'limni rejalashtirish, uning natijalarini baholash sifatida muhokama qilish mumkin bo'ladi. Tayyorgarlik sifati tushunchasi hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda o'quv yutuqlari atamasi bilan parallel tarzda qo'llanilib kelmoqda.

M.B.Chelishkova o'quvchilarning ta'limda erishgan yutuqlarini baholashda, odatda, ularning tayyorgarlik sifati va darajalari e'tiborga olinishini e'tirof etadi [1]. Uning ta'kidlashicha, tayyorgarlik darajasi o'quvchining muayyan o'quv fanidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va tasavurlari jamlanmasi bilan belgilanadi. Bunda, deb davom etadi M.B.Chelishkova, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada qandaydir darajalarga bo'lib o'tirishga hojat yo'qligi, chunki o'qituvchi a'lochi o'quvchilarning bilim darajasi hajmi, sifati bir-biridan ajralib turishini yaxshi bilishiga ishora qiladi. Shuning uchun ham tayyorgarlik sifatini M.B.Chelishkova bir xil tayyorgarlikka ega bo'lgan a'lochi o'quvchilarda mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini differensiasiyalashga yordam beradigan tasnif sifatida qaraydi. Bilimlar tasnifiga ularning mustahkamligi, onglililigi hamda umumlashganligini kiritadi. «Aynan ular o'quvchi shaxsining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va bunday o'quvchilar bilan oliy o'quv yurtlari talabalari safini yuqori sifatli bilimga ega abituriyentlar hisobiga kengaytirishga xizmat qiladi» [1. 11-b.].



Keyingi yillarda xorijda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi sifati yuzasidan ma'lum tasavur va ma'lumotlarni olish imkonini beradigan bir qator qiziqarli metodlar tavsiya qilinib kelinmoqda [2.15-b]. Masalan, bilimlarni loyihalash indeksini baholash metodi (method S-P lines). Metodni qo'llash mazmuni mutaxassislar tomonidan maxsus tarzda tanlab olingan testlar majmuasini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu holatda testlar nafaqat o'quvchining tayyorgarlik darajasi, balki uning bilimlari tarkibi, aniqrog'i, pedagog tomonidan o'quv yili yoki chorak boshida oldindan belgilangan idel darajadagi bilimlarga nisbatan og'ish darajasini ham aniqlash imkoni tug'iladi. O'quvchining qiyinchilik darajasi ortib boradigan test savollariga bergan javoblari to'g'rilik darajasi yuqoriligi uning bilimlari tarkibining boshqa sinfdoshlarinikiga nisbatan yaxshiligini anglatadi. Pedagog tomonidan oldindan belgilangan bilim sifati, tayyorgarlik darajasi sifatidan og'ish darajasi maxsus indeks bilan belgilanadi va tegishli korreksion ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

O'z navbatida, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi ularning tirishqoqligiga, uning bilim olishga bo'lgan intilish va qiziqishiga bog'liqligini hamma vaqt ta'kidlash lozim, o'quvchining bilimlari tarkibi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilishda o'z aksini topadi. O'quvchilar bilimlari tarkibini shakllantirishga o'qituvchining ularni tayyorlash dasturini to'g'ri tashkil qilishiga, mashg'ulotlarni tashkil qilishda bo'shliqlarga o'rin qoldirmasligi, materiallarni samarali ifodalashiga, guruh va individual ishlash mahoratiga bog'liq.

Bilim tushunchasining o'zi tarixan uzoq muddat davomida shakllangan. Qadimgi Sharqda, Hindiston, Xitoyda bilim «ritual va magiya xarakteriyagi tayyor reseptlar jamlanmasi» sifatida tushunilgan. Antik davr bilimning isbot talab qilishi asoslanishi zarurligi kabi jihatlari oydinlik kiritildi (Aristotel, 384-322 yy. Eramizgacha bo'lgan davr). Aristotel bo'yicha nazariy bilimlarga egalik, demak: 1) ilk maishiy sabablar, ularning boshlanishi, bo'linmaslikka qadar borish; 2) mushohada qilgan holda, ular oldida to'xtash; 3) haqiqatning tagiga yetgan holda xotirjamlikka erishishni anglatgan. Uyg'onish davri umumta'lim bilimlari mukammal kengaytirilgan mashg'ulotlarini shakllantirdi – filologiyani til bilimlari yoki bilimlar to'g'risidagi fan sifatida e'tirof etilishiga erishdi. XVII asrda dastlabki darslik va ensiklopediyalarning paydo bo'lishi hamda XVIII-XIX asrlarda jamiyatning intellektual, mehnat va madaniy munosabatlari taraqqiyoti bilimni hozirgi davr nuqtai nazaridan tushunishga olib keldi.

Hozirgi kunda bilim tushunchasining bir qator izohlari, ma'no ahamiyatiga ega: filologik, falsafiy, semantik, didaktik, metodologik, ilmiy, o'quv va boshqa.

Bilim – borliqni bilishning amalda tekshirilgan natijalarining inson ongida to'g'ri ifodalanish. Bilish bilmaslikning aksi, ya'ni biror narsa-hodisa to'g'risida sinovdan o'tgan axborotga ega emaslik, uning yo'qligi.

Bilim – obyektiv borliq haqidagi yoki muayyan (ilmiy, madaniy, ma'rifiy-ma'naviy, harbiy va b.) sohalarga oid ilmiy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmuyi, ilm



[3.260b]. *[O'zbek tilining izoxli lug'ati, I jild, A-D, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat milliy nashriyoti, 2006 yil, Toshkent sh., 680 b., 260-b.]*.

Baholash deganda, an'anaviy tarzda o'quvchining o'zlashtirish natijalari tushuniladi. Baholar turli shakl va ko'rinishga ega bo'ladi, lekin ularni umumiy maxrajga keltirish imkoni mavjud. Bahoni qayd etish – bu o'quvchining xulqi va o'zlashtirish darajasining natijalari sifatida o'qituvchining baholash faoliyati orqali an'anaviy tarzda tizimli ifodalanadigan belgi, qiymat [4,18-b].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik kvalimetriya bo'lajak pedagogik kadrlarning pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasining malaka talablariga mosligi, uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kasbiy malakasi, mazkur bosqichda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari, kasbiy kompetensiyasi(layoqati)ning DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarga mosligi, oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, mavjud kafedralarning pedagogik kadrlar tayyorlash sifati, o'quv rejadan o'rin olgan kurslarning moddiy va didaktik ta'minoti sifatini belgilangan tartibga muvofiq reyting asosida nazorat qiladi va baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фридман Л.М. Знания и их формирование //Проблемы теории и методики обучения. – М.:РУДН,2000,№5.-С.10
2. Тўракулов Х.А., Муқимов М.О. Бўлажак кичик мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашни ахборотлаштириш. – Т.: Fan va texnologiya, 2014. – 176 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон қарори/ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 18-сон, 313-модда, 19-сон, 335-модда, 24-сон, 490-модда, 37-сон, 982-модда.
4. Грабарь М.И. Проблема измерений и проверки гипотез при мониторинге результатов обучения // Стандарты и мониторинг в образовании, 1999, №6; 2000. - №3.